

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) 5

D.E.Normatova, S.N.Muxammadova

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari 12

N.M.Axmadiyev

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari 15

Д.А.Исаева

Влияние медиа на развитие античной философской мысли 18

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati 22

O.B.Shokirov

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili 28

R.B.Abduraxmonov

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari 31

X.J.Toshpo'latov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari 35

A.I.Abdullaxo'jaev

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

I.T.Yuldashev

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili 42

A.A.A'zamjonov

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari 46

M.K.Soipova

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili 50

S.F.Abdusattarov

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society 54

S.R.Xoldarov

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari 59

Sh.B.Samanova

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni 65

R.Orziboyev

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili 69

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar 73

Ф.М.Бафоев

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике 79

A.To'xtasinov

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari 83

U.U.Sattarov

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar 87

B.T.Shokirov

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar 93



УО'К:316,7.323/32

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA VATANPARVARLIK TAMOYILINING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

СОДЕРЖАНИЕ И ПОНЯТИЙНАЯ ОСНОВА ПРИНЦИПА ПАТРИОТИЗМА В ПОНИМАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

CONTENT AND CONCEPTUAL BASIS OF THE PRINCIPLE OF PATRIOTISM IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY

c

Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasи katta o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Bugungi kunda jamiyat a'zolarida o'zi mansub bo'lgan yurt, xalqning tarixi va taqdiriga, o'zi mansub bo'lgan jamoa, qatlam yoki turli ijtimoiy sinflarning hayot tarzi, qadriyatlari, urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, kishilarda vatan tuyg'usi va milliy o'zlikni anglashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada milliy o'zlikka angash va sadoqat masalasiga vatanparvarlik tamoyili asosida yondashuv takomillashtirishga qaratilgan tamoyillar va ularning konseptual asoslari tahlil qilingan. Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Аннотация

Сегодня члены общества с уважением относятся к истории и судьбе страны, к народу, к которому они принадлежат, к образу жизни, ценностям и традициям общества, слоев или различных социальных классов, к которым они принадлежат. научить людей понимать чувство Родины и национальной идентичности. В данной статье анализируются принципы и их концептуальные основы, направленные на совершенствование подхода к вопросу национальной идентичности и лояльности, основанного на принципе патриотизма. Раскрывается сущность принципа патриотизма.

Abstract

Today, members of the society respect the history and fate of the country, the people they belong to, the way of life, values, and traditions of the community, strata or different social classes they belong to. it is important to teach people to understand the sense of homeland and national identity. This article analyzes the principles and their conceptual bases aimed at improving the approach to the issue of national identity and loyalty based on the principle of patriotism. The essence of the principle of patriotism is revealed.

Kalit so'zlar: ijtimoiy rivojlanish, mafkuraviy plyuralizm, dunyoqarash, vatanparvarlik, mentalitet, taraqqiyot, insoniy fazilat, mas'uliyat, aqidaga sodiqlik, axloqiylik, e'zozlash.

Ключевые слова: общественное развитие, идеологический плюрализм, мировоззрение, патриотизм, менналитет, развитие, человеческая добродетель, ответственность, верность убеждениям, мораль, уважение.

Key words: social development, ideological pluralism, worldview, patriotism, mentality, development, human virtue, responsibility, loyalty to beliefs, morality, respect.

KIRISH

Ijtimoiy rivojlanish va milliy birdamlikni shakllantirish ijtimoiy dunyoqarashda mafkuraviy plyuralizmga doir fikrlash tarzini yuzaga keltirish asosida ro'y beradi. Aynan ijtimoiy munosabatlardagi mansublik, aynan qay bir tarafda bo'lish ijtimoiy maqsadlarning ahamiyatini ham ko'rsatib beradi. Jamiyat rivoji sari muhim ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqqa bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar to'qnashuvi asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rinn oladi, faoliyatiga ta'sir qilib, ularni mas'uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi.

Bugungi global muhitida, milliy manfaatlar uchun raqobatlar bo'layotgan sharoitda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning

obyektiv shart-sharoitlari to'g'risida yanada chuqurroq o'yish strategik maqsadlarimiz sirasiga kiradi. Negaki, mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida, yangicha islohotlar sharoitida vatanparvarlik tarbiyasi jamiyat rivojlanishining asosiy negizi sifatida baholanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Islom ensiklopediyasida "Vatan kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiatini, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi"[1].

Vatanparvarlik axloq falsafasining asosiy tamoyili hisoblanadi. Vatanparvarlik tamoyil sifatida: birinchidan, insoniy fazilatning ibtidosi, ilk sababi va asosidir; ikkinchidan, har qanday axloqiy xatti-harakat, xulq-atvor va axloqiy faoliyatning boshlang'ich qoidasi. Vatanparvarlik xususiyat sifatida qaraladi; uchinchidan, bir qator axloqiy fazilatlarni bir-biri bilan bog'laydi; to'rtinchidan, insoniylik fazilatlarning bir-birini to'ldirishi va aloqasini ta'minlaydi. Shu ma'noda, vatanparvarlik barcha fazilatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda, har qanday fazilat kabi vatanparvarlik ham muhabbat, burch, mas'uliyat, sadoqat, mardlik, jasorat, shafqat kabi tushunchalarga nisbatan xususiylikka hamda u mehr-oqibat, sodiqlik, ishonch kabi ayrim hodisalarining umumiy xossasi hamdir.

Ona Vatanning asosini harakat va maqsad sari intilish tashkil etgani uchun ham u dogmatiklikdan yiroq. Vatanparvarlik Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi kabi omillar asosida rivojlanadi. Shu munosabatda O'zbekiston ham turli millat va elatlardan iborat mamlakat sifatida yangicha vatan tushunchasini shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu orqali turli millat va elatlar o'tasida tinch-totuv hayot, mas'uliyatli fuqarolikni yaratishga intilmoqda.

Umuman olganda, vatanparvarlik ma'lum bir mamlakatning turli millati uchungina emas, barcha yashayotganlar uchun daxldor tushuncha hisoblanadi. Ma'lum bir mamlakat fuqarosi o'sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo'lmasligi ham mumkin. Chunki, bugungi kunda turli shart-sharoit taqozosi bilan boshqa bir mamlakatdan kelib qolib ketgan fuqarolar yoki o'z tarixiy vatanidan olisda tug'ilganlar ham mavjud. Ularning ko'pchiligidagi «tarixiy Vatan» tushunchasi xayoliy bir qo'msash, shirin g'uissa, o'tkinchi intilish tarzida ifodalanadi. Aslida esa bu Vatanga muhabbat emas, balki o'z ajdodlariga, o'tgan xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi. Haqiqiy muhabbat esa, sharoit har ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda, hozir yashab turgan Vatani va vatandoshlariga muhabbatining mavjud ekanligi bilan ayon bo'ladi. Shu ma'noda, vatanparvarlik – bu asrlar davomida o'z vatanida yashagan insonlar manfaatlarining birligini anglash, o'z xalqining tarixiy o'tmishiga hurmat, uning yutuqlari uchun g'urur va ajdodlari, zamondoshlari muvaffaqiyatsizliklari, falokatlari va xatolari uchun alamni his qilish, yangi, taraqqiyetuvchi narsalarni yaratishga bo'lgan yuksak intilishning amalda ifodalashdir.

Aslida chinakam vatanparvarlik muhabbatdan tashqarida namoyon bo'lolmaydi yoki muhabbatsiz chinakam vatanparvarlikning bo'lishi mumkin emas. Vatanga muhabbat tuyg'usi ham har bir kishiga aziz va muqaddasdir. Shu ma'noda, muhabbat ijtimoiy vatanparvarlik hamda barcha axloqiy fazilatlarning asosi hisoblanadi. Biroq, bizning fikrimizcha, vatanparvar bo'lish – bu faqat Vatanni sevish bilangina kifoyalanmaydi. Qolaversa, sevgi mohiyatan chin insoniy tuyg'u hisoblansa-da, insonni sevish bilan Vatanni sevish o'tasida farq bor. Sevgida inson o'zi uchun eng bebafo bo'lgan hayotining bir qismini - hissiyoti, bilimi, kechinmalarini o'zga insonga bag'ishlaydi. Shu ma'noda, vatanni sevadigan inson degan axloqiy sifatga qaraganda vatanparvar inson degan axloqiy sifatning qamrovi keng, mas'uliyati yuksak, maqsadi ham ulug'roq bo'ladi[2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aytish kerakki, vatanparvarlik va vatanni sevish tushunchalari o'tasida o'xshash va farqli jihatlar mavjud. Ularni bir-biridan farqlash lozim.

Vatanni sevish – bu Vatan bilan birlashishni anglab yetishni, ya'ni Vatanni o'zi bilan, o'zini Vatan bilan birlashishini taqozo etadi. Bu sevgi muayyan shaklga tushgan axloqiylik ko'rinishga ega bo'lib, uning reallikka aylanishi insondon muayyan vaqt va sharoitni talab qiladi. Bu sevgi gohida qat'iy, gohida o'tkinchi tuyg'u – yoqtirib qolishga asoslanadi. Bundan tashqari, Vatanni sevish insondon juda kuchli iztirobni, mashaqqatni talab etmaydi.

Vatanparvarlik fazilati bo'lsa, burch va mas'uliyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Burch vatanparvar uchun so'zsiz bo'ysunishni, o'zini axloqiy jihatdan takomillashtirishni, vazifani ongli ravishda bajarishni talab etadi. Vatanparvar, ayniqsa harbiy vatanparvarning burchi Vatan

FALSAFA

oldidagi mas'uliyatni to'liq bajarish, Vatanni e'zozlash bilan belgilanadi. Bu mas'uliyat, ayni paytda, Vatanni dushmanlardan himoya qilishni, tahdidlarga qarshi kurashishni, Vatanni ravnaq toptirish, va unga sadoqat bilan xizmat qilishdek ezgu fazilatlarni qamrab oladi. Burchni anglab yetish esa, faqat bilim, tajriba, ko'nikma, malaka orqali ro'y beradi. Nemis faylasufi Immanuil Kant bunday burchni huquqiy burch va axloqiy burchga o'xshatadi. Chunonchi, huquqiy burchni bajarish tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch aksincha, fazilatga, ya'ni ichki hodisaga, ixtiyor erkinligiga bog'liq. Shu bois insonning axloqiy burchga muvofiq xatti-harakat qilish qobiliyatini Kant fazilat deb atagan edi[3].

Vatanparvarlikni individual va ijtimoiy vatanparvarlik sifatida tasniflash mumkin. Individual yoki shaxsiy darajadagi vatanparvarlik insonning ma'naviy dunyoqarashida, ezgu maqsadlarida, axloqiy intilishlarida muhim va barqaror xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy vatanparvarlik esa ijtimoiy tafakkurning jamoaviy kayfiyatlarida, hissiyotlarda, o'z xalqiga nisbatan munosabatda, hayot tarzida, muhim qadriyatlar tizimida, boshqa xalqlar, ularning tili, tarixi, madaniyatiga bo'lgan hurmatda namoyon bo'luvchi qismini ifodalaydi.

Demak, vatanparvarlik ma'lum bir faoliyat, ijtimoiy faoliylik va mas'uliyatni talab etadi. Vatanni sevish shunchaki tuyg'u hisoblanadi, u insonni ma'lum bir amaliy faoliyatga undaydi. Chunki vatanparvarlik mohiyatan insonning kundalik mayda tashvishlardan yuksakka, ulug'vorlikka ko'tarilishidir. Rus faylasufi A.N.Radishev vatanparvarlik fazilatini boshqa fazilatlardan uchta sifat-belgisiga ko'ra farqlaydi. Bular – sharaflilik, xushxulqlik, olijanoblik[4]. Vatanparvarlik va vatanni sevish o'rtaqidagi ikkinchi farq manfaatdorlik bilan o'chanadi, ya'ni, vatanni sevishda manfaatdorlik mavjud bo'ladi. Bunday manfaatdorlik odatda "Vatan menga nima berdi?" degan aqidaga amal qiladi. "Vatanparvarlik" esa manfaatning har qanday ko'rinishdan holi bo'lgan beg'araz fazilat bo'lib, unda olish emas berish ko'proq ahamiyatga ega. Shuning uchun vatanparvarlik fazilati "Men Vatan uchun nima qildim?" - degan ezgu aqidaga javob topishga intiladi. Hozirgi davr aynan ikkinchi aqidaga qanday amal qilishga qarab insondagi vatanparvarlik tuyg'usini baholamoqda.

XULOSA

Umuman olganda, vatanparvarlik - insonning amaliy faoliyati hamdir. Chunki, inson Vatanni o'ylab, uning taraqqiyoti, yorug' kelajagi yo'lida mehnat qilsa, kurashsa vatanparvarlik amaliy faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat esa barcha xalqlar hayotida yuksak insoniy fazilat sifatida qadrlangan. Zero, vatanparvar kishining burchi - xayrli ishlar qilishidan, ya'ni biror-bir mukofotga umid bog'lamasdan, imkon qadar odamlarga yordam berishidan va ularning baxtli bo'lishiga ko'maklashuvidan iboratdir. Shu ma'noda, "chinakam vatanparvar" deganda xalq manfaatlarini ko'zlab ish tutadigan insonlarni tushunish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ислом энциклопедияси. Тошкент.: Ўзбекистон миллый энциклопедияси ДИН, 2017.
2. Усмонов К. Ўзбек халқи маънавий-ахлоқий меросида ҳарбий ватанпарварлик ғояларининг талқини. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган. –Тошкент. ЎзМУ.2017.
3. Кант И. Критика способности суждения. – Москва: Мысль, 1982.
4. Кулакова Л. И., Западов В.А. А.Н.Радищев: Путешествие из Петербурга в Москву /Комментарий. – Ленинград, Белогор, 1974.